

Qadring baland bo'lsin, ona tilim!

Har bir millat o'z ona tili bilan mustaqil va tirikdir. Davlatimiz Rahbari tomonidan o'zbek tilining nufuzini oshirish borasida jonkuyarlik bilan belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish ham har bir vatanparvarning ulkan mas'uliyati hisoblanadi. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganidek, kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehri qo'shiqlariga quloq tutsin. Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilining tarixi xalqimizning ko'p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dardu armonlari, zafarlari va g'alabalari bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi kunda olib borilayotgan mana shunday ulkan islohotlarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ham ishtiroki bizni quvontiradi.

2019-yil 21-oktyabr kuni imzolangan "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga asosan "Davlat tili haqida"gi qonunning qabul qilinishi ulkan tarixiy voqea bo'ldi. Farmonga ko'ra ona tilimizning kelgusi taraqqiyotiga oid ko'plab masalalar qatorida alohida tuzilma - Vazirlar Mahkamasining Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti tashkil qilindi. Bugungi kunda departament davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishini, sohaga oid muammolarni tahlil etib kelmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi hamda unda belgilangan vazifalarni bajarishda davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman, shahar hokimliklari tuzilmalarida, rahbarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimi joriy qilindi. Bu esa, mazkur lavozimga tayinlangan xodimlar zimmasiga tashkilot va muassasalarda davlat tiliga oid qonun hujjatlari, dasturlar, "yo'l xaritalari"ning ijrosini ta'minlash, sohada mavjud muammolarni bartaraf etish kabi ko'plab vazifalarni yukladi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida ham rahbarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimida bir nafar xodim boshqaruv apparatiga tayinlangan bo'lsa, har bir tizim ilmiy tashkilotlariga (jami o'ttiz nafar) xodim ushbu lavozimiga birlashtirildi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun bayrami arafasida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizim ilmiy tashkilotlarining maslahatchilari o'rtasida "Qadring baland bo'lsin, ona tilim" shiori ostida tanlov e'lon qilindi. Tanlov akademiyaning ichki buyrug'i bilan tasdiqlangan tashkiliy qo'mita tomonidan ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida tashkil etildi. Joriy yilning 20-oktyabr kuni esa tanlov natijalari e'lon qilinib, g'oliblarni taqdirlash marosimi o'tkazildi. Shuningdek, shu kuni Fanlar akademiyasi hamda ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish departamenti tomonidan 2020-2021 yillardan nashr etilgan besh nomdagi kitoblarning taqdimoti ham o'tkazildi. Tadbir ishtirokchilariga ushbu kitoblar sovg'a tariqasida tarqatildi.



Rahbarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisining zimmasiga yuklangan vazifalarning to'laqonli bajarilishi ularning o'z sa'y-harakatlariga bog'liq. Zotan, bugungi tadbir - taqdirlash marosimidan ko'zlangan va kutilgan natija ham aslida shu edi. Zero, o'zbek xalqi, O'zbekiston va o'zbek tili tom ma'noda

bir butunlikni kasb etadi. Bayramingiz muborak bo'lsin!